



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: MURTAZAYEV ABROR ODILOVICH

Qarshi davlat texnika universiteti

falsafa doktori (PhD)



A'zo: ERGASHEVA SHAXNOZA OBIDJONOVNA

**Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Urug'chilikni
rivojlantirish markazi**

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260128
Xulosa raqami	1610
Xulosa sanasi	16.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"XALQARO NORDIK UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Chust ko'chasi, 17-uy. Litsenziya: № 1569217, 08.08.2022. Guvohnoma: MAS № 0000414, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60230100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 1569217, 08.08.2022
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60230100 – Philology and Language Teaching: Uzbek Language
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60230100 – Филология и преподавание языка: узбекский язык
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil / 4,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	—
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat tomonidan tan olinadigan diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	300 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Chust ko'chasi, 17-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

Mazkur bobda 60230100 – “Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili” bakalavriat ta'lim dasturini boshqarish hamda ichki sifatni ta'minlash tizimining holati baholandi. O'rganilgan hujjatlar ta'lim dasturining strategik maqsadlariga o'z vaqtida va samarali erishish uchun zarur tashkiliy hamda institutsional asoslar yaratilganini, ta'lim dasturini boshqarishga mas'ul ijrochilar va ularning vakolatlari aniq belgilanganini tasdiqladi. Mehnat bozori talablari va ta'lim ehtiyojlarini muntazam o'rganish mexanizmlari, shuningdek ichki sifat monitoringi tizimi yo'lga qo'yilgani ta'lim dasturining uzluksiz takomillashtirilishini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etildi. Yangi tashkil etilgan ta'lim yo'nalishi uchun boshqaruv jarayonlarida shaxsiy javobgarlikning aniq taqsimlanishi, ijrochilar mas'uliyatining belgilanishi va ularning faoliyatini muntazam monitoring qilish tizimi ijro intizomini ta'minlash hamda ta'lim dasturining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv omili sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalari ta'lim dasturini boshqarish va sifatni ta'minlash tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga muvofiq tashkil etilganini tasdiqladi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Mazkur bobda 60230100 – “Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili” bakalavriat ta'lim dasturining mazmuni, tuzilishi hamda amaldagi me'yoriy talablarga muvofiqligi baholandi. Taqdim etilgan hujjatlar ta'lim dasturi belgilangan tartibda professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar ishtirokida ishlab chiqilganini hamda muntazam takomillashtirib borilayotganini tasdiqladi. Dastur maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va bitiruvchilarda shakllantirilishi ko'zda tutilgan kasbiy kompetensiyalar davlat ta'lim standarti hamda Milliy

malakalar ramkasi talablariga muvofiq belgilangan bo'lib, ta'lim jarayoni o'zbek tilida kunduzgi va kechki ta'lim shakllarida tashkil etilishi ta'lim oluvchilar uchun qulay akademik sharoitlar yaratishi e'tirof etildi. O'zbek filologiyasi yo'nalishining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va til o'qitish metodikasi bloklarining o'zaro uzviy integratsiyasi bitiruvchilarda nazariy bilim, amaliy ko'nikma va pedagogik kompetensiyalarni kompleks shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalari ta'lim dasturi mazmunining akkreditatsiya mezonlari va sifat talablariga muvofiq shakllantirilganini e'tirof etdi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

Mazkur bobda 60230100 – “Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili” bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish hamda ta'lim natijalarini baholash tizimining holati baholandi. O'rganilgan hujjatlar va taqdim etilgan ma'lumotlar o'quv jarayoni zamonaviy talablar asosida tashkil etilganini, akademik jarayonlar HEMIS va LMS platformalari orqali muntazam monitoring qilinayotganini hamda baholash jarayonlari elektron tizim asosida amalga oshirilayotganini tasdiqladi. Ishchi o'quv rejalari va fan dasturlari (sillabuslar) kutilayotgan o'quv natijalariga yo'naltirilgan holda ishlab chiqilgani, baholash mezonlarining shaffofligi ta'minlangani hamda akademik halollik tamoyillarini qo'llash tizimi amaliyotga joriy etilgani kuzatildi. Raqamli ta'lim muhitining imkoniyatlaridan keng foydalanish, xususan, baholash jarayonlarini elektron platformalar orqali to'liq yuritish ta'lim jarayonining ochiqligi, xolisligi va natijalarning ishonchliligini ta'minlovchi muhim mexanizmlardan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalari o'quv jarayoni va bilimlarni baholash tizimining akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga mos ravishda tashkil etilgani aniqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Mazkur bobda 60230100 – “Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili” bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha talabalarni qabul qilish, talabalar kontingentini boshqarish hamda ularni akademik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining holati baholandi. Taqdim etilgan hujjatlar qabul jarayoni rektorning 2024-yil 25-maydagi B-034-son buyrug'i asosida belgilangan tartibda tashkil etilganini, qabul kvotalari, topshirilishi lozim bo'lgan hujjatlar ro'yxati, kirish imtihonlari mezonlari hamda til sertifikatlariga ega abituriyentlar uchun nazarda tutilgan imtiyozlar aniq belgilanganini tasdiqladi. Mazkur ma'lumotlarning rasmiy onlayn platformalar orqali ochiq e'lon qilinishi

qabul jarayonining shaffofligi va ochiqqligini ta'minlayotgani, shuningdek talabalar harakati, ularni akademik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tartiblari belgilangan me'yorlar asosida yo'lga qo'yilgani kuzatildi. Qabul mezonlarining oldindan e'lon qilinishi barcha abituriyentlar uchun teng imkoniyatlarni yaratish, ochiqlik tamoyillarini ta'minlash hamda ta'lim jarayoniga saralashning xolisligini mustahkamlovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalari talabalar faoliyatini tashkil etish tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan sifat talablariga javob berishi e'tirof etildi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Mazkur bobda 60230100 – “Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili” bakalavriat ta'lim dasturini amalga oshirish uchun shakllantirilgan inson resurslari salohiyati, professor-o'qituvchilar tarkibi hamda ularni kasbiy rivojlantirish tizimining holati baholandi. O'rganilgan hujjatlar kadrlar salohiyatini yuksaltirish, malaka oshirish va ilmiy-pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlar amaliyotga joriy etilganini, professor-o'qituvchilarning mutaxassisligi o'qitilayotgan fanlar mazmuniga mosligini tasdiqladi. Shuningdek, nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarning KPI tizimi orqali yuqori ball bilan baholanishi, ilmiy va pedagogik yutuqlar asosida moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlarining qo'llanilishi professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgani kuzatildi. Rag'batlantirish tizimining ilmiy natijalar va aniq samaradorlik ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'langan KPI mexanizmi asosida tashkil etilishi professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ta'lim sifati va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha mavjud inson resurslari salohiyatining ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Mazkur bobda 60230100 – “Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili” bakalavriat ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yaratilgan moddiy-texnik baza, o'quv-uslubiy ta'minot hamda axborot-resurs infratuzilmasining holati baholandi. Taqdim etilgan hujjatlar va mavjud sharoitlar amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun zarur jihozlar, multimedia vositalari, o'quv adabiyotlari, metodik qo'llanmalar, elektron axborot bazalari hamda Axborot-resurs markazi resurslari yetarli darajada shakllantirilganini tasdiqladi. Universitetning nashr rejasi doirasida filologiya fanlari bo'yicha zamonaviy darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalarni bosqichma-bosqich

tayyorlash hamda ta'lim jarayoniga joriy etish ishlari yo'lga qo'yilgani o'quv-uslubiy ta'minotni muntazam takomillashtirishga xizmat qilayotgani kuzatildi. O'zbek filologiyasi yo'nalishining ilmiy va amaliy xususiyatidan kelib chiqib, matn korpuslari, raqamli kutubxonalar va elektron ilmiy manbalar fondini muntazam boyitib borish talabalarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy ilmiy yondashuvlarni o'zlashtirish hamda ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha moddiy-texnik va axborot-resurs ta'minoti akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga muvofiq shakllantirilgani e'tirof etildi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Xalqaro hamkorlik va akademik almashinuv elementlarini kengaytirish imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan.
- ✓ Ayrim fanlar bo'yicha eng so'nggi yillarda nashr etilgan o'quv adabiyotlari ulushini oshirish talab etiladi.
- ✓ Ichki monitoring natijalarini aks ettiruvchi hisobotlarni standartlashtirish zarurati mavjud.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Xalqaro hamkorlik, qo'shma dasturlar va akademik almashinuv imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish.
- ✓ O'quv adabiyotlari va elektron resurslar fondini muntazam yangilab borish.
- ✓ Ichki monitoring hisobotlarini standartlashtirish va boshqaruv qarorlari ijrosini baholab borish.
- ✓ Amaliyotchi mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb etishni davom ettirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Xalqaro Nordik universitetida 60230100 – "Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, inson resurslari hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda baholandi. O'rganish jarayonida ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi amaldagi me'yoriy

talablar asosida shakllantirilgani, mehnat bozori ehtiyojlarini o'rganish va manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturini takomillashtirish mexanizmlari yo'lga qo'yilgani, dastur davlat ta'lim standarti, Milliy malakalar ramkasi hamda soha ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqilgani tasdiqlandi. Shuningdek, o'quv jarayoni natijalarga yo'naltirilgan yondashuv, shaffof baholash tizimi va akademik halollik tamoyillari asosida tashkil etilgani, talabalarni qabul qilish, ularning akademik faoliyatini boshqarish va qo'llab-quvvatlash tizimlari samarali yo'lga qo'yilgani, professor-o'qituvchilar tarkibining ta'lim dasturi talablariga mosligi hamda filologiya fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlari, elektron axborot bazalari va Axborot-resurs markazi fondining ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun yetarli darajada shakllantirilgani o'z ifodasini topdi. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturi bo'yicha ko'rib chiqilgan barcha 6 bob va 27 ta mezon belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga to'liq muvofiq deb topildi. Bildirilgan tavsiyalar ta'lim dasturini yanada takomillashtirish va uning sifatini izchil rivojlantirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, ular dastur bo'yicha yakuniy bahoga ta'sir ko'rsatmaydi. Umuman olganda, mavjud dalillar va baholash natijalari 60230100 – “Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili” bakalavriat ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablar hamda sifat standartlariga to'liq javob berishini tasdiqladi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

